

“ME’ROJNOMAYI TURKIY” ASARIDA PAYG’AMBARLAR TAVSIFI


Latipova Saodat A’zamovna

*BuxDU Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo’nalishi
magistranti*

Annotatsiya: maqolada Me’roj kechasi bilan bog’liq ilmiy va badiiy mushohadalar beriladi. Shuningdek, Buxoro adabiyot va san’at muzeyi fondida saqlanayotgan “Me’rojnomyi turkiy” asaridagi ayrim qismlarning joriy yozuvdagi tabdili va tahlili keltiriladi.

Tayanch so’zlar: Alloh, Qur’oni Karim, Me’roj kechasi, payg’ambarlar, farishtalar, “Turkiy me’rojnoma”

Buxoro adabiyot va san’at muzeyi fondida saqlanayotgan “Me’rojnomyi turkiy” asari adabiyotimiz xazinasidagi nodir manba hisoblanadi. Asarda payg’ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning me’rojga ko’tarilish hodisalari, vafotlari, bibi Fotimaning vafotlari haqida ma’lumotlar keltiriladi. Payg’ambarimiz vafotlaridan keyin sahobalarning chuqur qayg’uga tushganliklari ham bayon etiladi. Bu voqealar ma’lum sarlavha nomlari ostida berib o’tilgan. “Me’rojnomyi turkiy” barcha olamlar Robbisi Ollohga cheksiz hamdlar bilan boshlanadi. Payg’ambarimiz Muhammad Mustaf(s.a.v)ga esa “durudi beaded” deya ta’rif beriladi. Islom dini Muhammad (s.a.v) qadar bir necha payg’ambarni ko’rgan. Muhammad (s.a.v) ularning so’nggisi deyiladi.



*Kim Odam anbiyolar sarvaridur
Muhammad barchasini rahbaridur.³⁷*

Odam alayhissalom payg’ambarlarning sarvaridir. Odam alayhissalom barcha payg’ambarlarning birinchisi bo’lib, ularga rahbar sifatida Muhammad alayhissalom e’tirof etiladi. “Odam va uning bolalari” qissasi Qur’oni Karimning Moida surasida kelgan. Unda Qobil va Hobil haqida ,

³⁷ Me’rojnomyi turkiy. Buxoro va adabiyot va san’at muzeyi. Inv.23497/11

Qobilning o'z birodari Hobilga bo'lgan hasadi, adovati bayon etilgan: "**Bas, nafsi unga o'z birodarini o'ldirishni chiroyli ko'rsatib (Qobil), uni o'ldirdi va ziyon ko'rguvchilardan bo'lib qoldi**".³⁸Qobilning o'limi Odam Ato va Momo Havo uchun og'ir musibat bo'ldi. "Qobilda kezin yuz o'tuz yil kechdi. Shis tug'urdi. Shis sarboniy tilincha "hibatulloh" temak bo'lur, ya'ni tengri atosi". Shis Odam Atoning sevimli o'g'illaridan edi. Odam Ato unga bo'zchilik hunarini o'rgatdi. Shis eliga Ollah tomonidan " jufklarini nikoh qilsinlar" deya xitob keldi.³⁹ Ammo bularga qaramasdan asarda Muhammad alayhissalom barchasidan afzal deya ta'riflanadi.


Asarda yana ko'plab payg'ambarlar haqida so'z yuritiladi. Bular sirasiga Odam, Shis, Ibrohim, Ya'qub, Yusuf, Dovud, Sulaymon alayhissalomlarni kiritish mumkin.

"Me'rojnomayi turkiy"da payg'ambarlar bilan bir qatorda farishtalar nomi ham keltiriladi. Unda nomlari zikr etilgan farishtalar: Jabroil, Mikoil, Azroil, Isrofil alayhissalomlardir.

*Bani Isroil o'g'li erdi Dovud,
Muhammad erdilar mahbubi ma'bud.
Ani o'g'li jahon olgan Sulaymon,
Muhammad erdilarkim xos Rahmon.
Masihulloh otondi ibni Maryam,
Muhammad barchadin erdi mukarram.
Muhammadga inoyat qildi Me'roj,
O'sha tunda boshig'a qo'yuldi toj
Tushi ersin vahiy ogah edilar,
Alarga to'rt malak hamroh edilar.
Biri Jabroil va Mikoil erdi,
Biri Azroil va Isrofil erdi.
Buroq kelturdilar tun uyqusinda,
Muhammad erdi ummat qayg'usinda .
Kirib Jabroil ul dam qildi bedor,
Dedi Haq ko'rsatur bu kecha diydor.*

³⁸ Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. Toshkent:-2019

³⁹ Nosiriddin Rabg'uziy. Qissasi Rabg'uziy. I qism. Toshkent:-1992. –B 33



Dashtlab payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning barcha payg'ambarlardan ustun ekanliklari aytib o'tilgan. Yuqorida Bani Isroil qavmidan bo'lgan Dovud alayhissalom va u kishining o'g'illari Sulaymon alayhissalomning nomlari keltiriladi. Ma'lumki, Dovud alayhissalom Qur'oni karimda nomi e'tirof etilgan payg'ambarlardan bo'lib, 100 yil yashab, 40 yil podshohlik qilganlar. Sulaymon alayhissalom esa 52 yil yashaganlar. 12 yoshlarida otalaridan podshohlik qoladi. Taxtga o'tiradilar, 40 yil boshqaradilar. U zot haqlarida **"Baqara"**, **"Niso"**, **"Moida"**, **"An'om"**, **"Isro"**, **"Anbiyo"**, **"Naml"**, **"Saba"** va **"Sod"** suralarida oyati karimalar mavjud. U zotning nasablari Ya'qub ibn Is'hoq ibn Ibrohim alayhissalomga borib taqaladi. Dovud Iso alayhissalom tug'ilishidan taxminan 1000 yilcha oldin Falastin diyorida tavallud topgan. Qur'oni Karimda Dovud alayhissalom nomlari 10 marta zikr qilingan. Jumladan, "Baqara" surasida shunday deyiladi: **"Qachonki Joluf va uning lashkarlari ko'ringanida aytdilar: Parvardigoro, ustimizdan sabr-u toqat yog'dirgin, qadamlarimizni sobit qil va O'zing bizni bu kofir qavm ustiga g'olib qil! Bas, Allohning izni bilan ularni yengdilar. Va (Tolufning askarlaridan bo'lgan) Dovud Jolufni o'ldirdi. Va Alloh unga (Dovudga) podshohlik, payg'ambarlik ato qiladi va O'zi xohlagan narsalaridan ta'lim beradi. Agar Alloh odamlarning ayrimlarini ayrimlari bilan daf qilib turmas ekan, shubhasiz, yer fasodga duchor bo'ladi. Lekin Alloh barcha olamlar ustida fazl-u karam sohibidir"** ("Baqara" surasi, 250-251- oyatlar). Alloh taolo Dovud alayhissalomga juda ko'p ulug' ne'matlarni: fazl, baraka va buyuk saltanatni ato qilgan edi. U zot qo'l

mehnati bilan kun kechirar edi. Sulaymon ibn Dovud alayhissalomga esa boshqa ne'matlarni ato qilgan edi. Sulaymon alayhissalomga shamol bo'ysundirib qo'yilgan edi. O'sha shamol Sulaymon amri bilan ertalab bir oylik, kechki payt bir oylik yo'lni bosib o'tar edi. Shuningdek, Dovud alayhissalomga sovut yasash o'rgatilgandi, Sulaymon alayhissalomga esa mis eritish berilgandi. **“Va aning uchun mis bulog'ini oqizib qo'ydik”**.⁴⁰ Bundan tashqari jinlar ham Sulaymon alayhissalom xizmatiga berilgan edi. “Me'rojnomayi turkiy”da Sulaymon alayhissalomning jahonni olganligi-yu, ammo Muhammad alayhissalom esa Rahmonga xos ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

*Masihulloh otondi ibni Maryam,
Muhammad barchadin erdi mukarram.*⁴¹

Keyingi satrda esa Masihulloh ibni Maryam deya Iso alayhissalom nomi keltiriladi. Qur'oni karimdagi bir qancha suralarda Iso alayhissalomning tug'ilishi, voyaga yetishi fazilati va mo'jizalari haqida xabar qilingan. Jumladan, “Maryam” surasida ham buni ko'rish mumkin. “Maryam” surasida Iso va uning onasiga tuhmat qiladiganlar oxirati yomon bo'lishi haqida ogohlantirilgan. “Oli Imron” surasida esa unga berilgan payg'ambarlik mo'jizalari haqida so'z yuritiladi. Iso alayhissalom o'z davrida hech bir tabibning qo'lidan kelmaydigan ishni qildi, ya'ni o'liklarni tiriltirdi. Shuning uchun ham Qur'oni karimda u kishining nomiga –Masih –silovchi laqabi qo'shilgan. U kishining qo'llari tekkan, silagan o'likka jon kirar edi. Bunday mo'jizalar, tabiiyki, odamlarning o'z payg'ambarlariga imon keltirishlariga sabab bo'lar edi.

*Muhammadga inoyat qildi Me'roj,
O'sha tunda boshig'a qo'yildi toj.*

Payg'ambarlarda sanalgan jihatlar bo'lishiga qaramasdan, Muhammad alayhissalom barchasidan aziz va mukarram edilar. Shu sababli ham u zot Alloh taolo bilan ko'rishmoqqa muyassar bo'ldilar. Bu kecha esa Me'roj kechasi deb nomlanadi. Muhammad alayhissalom boshlarig'a toj qo'yilib tushlarida Alloh tomonidan vahiy keladi.

*Tushi ersin vahiy ogah edilar,
Alarga to'rt malak hamroh edilar.
Biri Jabroil va Mikoil erdi,
Biri Azroil va Isrofil erdi.*

Vahiy – diniy ta'limotga ko'ra, payg'ambarlarga farishtalar orqali Alloh tarafidan yuborilgan buyruq yoki ko'rsatmadir. Vahiy faqat

⁴⁰ Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. Toshkent: -2019

⁴¹ Me'rojnomayi turkiy. Buxoro va adabiyot va san'at muzeyi. Inv.23497/11

payg'ambarlargagina nozil bo'lgan. Jabroil alayhissalom esa payg'ambarlarga Vahiy keltirishga mas'ul bo'lgan farishtalardan.

Vahiy tushgan paytda Muhammad alayhissalom kunlar sovuq bo'lsa ham, terlab ketardilar, nafas olishlari tezlashardi. Payg'ambarimizga ilk Vahiy 40 yoshlarida kelgan. Vahiy boshlanishi Ramazon oyining yettinchi kuniga to'g'ri keldi. Bu paytda payg'ambarimiz Hiro tog'ida ibodat bilan mashg'ul edilar. Jabroil alayhissalom odam suratida ko'rinadi. Payg'ambarimizga "O'qi" deya 3 marta amr qilganlaridan so'ng, "Iqro" surasining boshidan besh oyatini o'rgatdilar. Ulug' zot osmonlarni farishtalarga makon qildi. Mana shu farishtalar ichida to'rt nafar ulug' farishtaga payg'ambarlik darajasini berdi. Bular – Jabroil, Mikoil, Isrofil, Azroyil alayhissalomdirlar. Tamom maxluqlarga rizq tayyorlash ishi Mikoil alayhissalom vazifasidir. Isrofil alayhissalom bo'lsa qiyomat – qoyim bo'lishida sur chalish va ruhlarni tarbiyat qilish, Azroyil alayhissalom jon olish, Jabroil alayhissalom esa Alloh amrlarini payg'ambarlarga yetkazish vazifalaridadurlar.

*Buroq keltirdilar tun uyqusinda,
Muhammad erdi ummat qayg'usinda.
Kirib Jabroil ul dam qildi bedor,
Dedi Haq ko'rsatur bu kecha diydor.*

Payg'ambarimiz Muhammad(s.a.v)ning Me'rojga chiqqanlarida voqea uyquda bo'lganmi yoki uyg'oqliklarida bo'lganmi, buni turlicha sharhlaydi.

"Rasullulloh sallollohu alayhi vasallamning "Isro va Me'roj" kechasida payg'ambarlarni ko'zlari bilan ko'rganlari rivoyat qilingan. Yana u zotning barcha payg'ambarlarni samoda ham ko'rganlari zikr qilingan. Shunga ko'ra ba'zilar "Nabiy sallollohu alayhi vasallamning tunda sayr ettirishlari uyquda bo'lgan deyishib, sahii xabarlarni rad etishgan. Chunki ular vazmin narsaning yuqoriga harakatlanishini va o'likning tirilishini odatga xilof deb bilishgan. Ulamolar esa bunga ishonch bildirganlar. Zero, vazmin narsaning yuqoriga ko'tarilishi xuddi tushishi kabi bir jarayondir. Jabroil alayhissalom yengil bo'lishlari bilan birga, yerga tushganlar, xuddi shunday Muhammad alayhissalom ham vazmin bo'lishlari bilan yuqoriga ko'tarilganlar. Osmonlar-u yerni ustunlarsiz tutib turgan Zotning shuni taqozo qilishining hech qanday ajablanarli joyi yo'q. Alloh taoloning qudratiga vazmin narsani o'sha darajaga ko'tarishi qiyinlik tug'dirmaydi. Shuningdek, payg'ambarlarni tiriltirib, ularni xilma-xil o'rinlarda va turli vaqtlarda u zotga ko'rsatishi ham joiz ishlardan hisoblanadi

"Me'rojnoma turkiy"da esa Me'rojga chiqish voqeasi yarim tunda,

uyqu paytida bo'lganligi aytib o'tilgan. Payg'ambarimizni Haq yoniga olib chiqish vazifasi Jabroil alayhissalomga yuklatilgan edi.

“Endi bu ulug' mo'jizaning bayoni shundog'dirkim, bir kuni payg'ambarimiz “Oltin tarnov”ning osti, Ka'ba orqasi – Hatimda yonboshlab yotgan edilar. Shul chog'da Jabroil alayhissalom bir necha farishtalar bilan hozir bo'ldilar. Payg'ambarimizning ko'krak chuqurlaridan boshlab, muborak ko'ksilarini yordilar.

Oltin jomda to'liq “iymon-hikmat” suvi keltirilgan edi. Yuraklarini chiqarib, shu suv bilan chayqadilar. So'ngra ilm-hikmat, iymon to'ldirib yuraklarini o'z o'rniga qo'yidilar. Shu chog'da xachirdan kichikroq, eshakdin cho'ngroq Buroq oti jannatdin keltirilgan edi. Uning ildamligidan, ko'zi yetgan joyga oyoq qo'yar edi. Jabroil alayhissalom payg'ambarimizni shu Buroqqa mindirdi. Oldinlarida o'zi yo'l boshlab yurib, xiyol o'tmay Masjidul Aqsoga yetdilar. Ul joyda Ibrohim, Muso, Iso alayhissalom boshliq barcha payg'ambarlar kutmoqda edilar”.

Payg'ambarimiz Muhammad(s.a.v)ning yoshliklarida otalari va onalaridan bevaqt judo bo'lganlari haqida ma'lumotlar bor. “Me'rojnomyi turkiy”ning ma'lum bir sahifalarida bu xususda so'z yuritiladi:

*Ey Xudoyo, hech o'g'lon otasi o'lmasun,
Ustiga mendek bo'lub, yana onasi o'lmasun.
Qayga borurni bilmay ko'chalarda qolmasin,
Hech odamni bolasini bu kuyiga solmasin.*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. Toshkent. 2019.
2. Nosiriddin Rabg'uziy. Qissasi Rabg'uziy. –Toshkent.Sharq. 1992
3. Alixonto'ra Sog'unuy. Tarixi Muhammadiy. –Toshkent.Munir.2021
4. Muhammad Sayyid Tantoviy .Payg'ambarlar tarixi. Toshkent. Sharq. 2021
5. Abdurahmonov A. E'tiqod durdonalari. – Toshkent , 2012